

## **“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida 2024-yil I-yarim yilligida aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini tartibga solish to‘g‘risida**

### **AXBOROT**

Komplayens xizmati tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining **121-moddasi talablari** va Jamiyatning 2023-yil 27-apreldagi **214-sonli buyrug‘i** bilan tasdiqlangan “NKMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizomi asosida manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini o‘rganish, ularga baxo berish hamda manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga qaratilgan choralarni belgilash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida **2024-yil I-yarim yilligida** taqdim etilgan deklaratsiyalar asosida tahlil va o‘rganishlar olib borildi.

Natijada o‘tgan davrda Komplaens xizmatining ma’sul xodimlari tomonidan jami **4 ta xolatda** manfaatlar to‘qnashuvi aniqlandi.

Shundan, “Qizilqum” kon boshqarmasida 1 ta holat hamda “NMZ” ishlab chiqarish birlashmasida 1 ta manafaatlar to‘qnashuv xolati bartaraf etildi.

Hozirda Navoiy mashinasozlik zavodi ishlab chiqarish birlashmasida 2 ta xolat bo‘yicha “NKMK” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va Komplayens xizmati to‘g‘risidagi Nizom tamoyillari va talablariga ko‘ra Jamiyatning **2023-yil 27-apreldagi 214-sonli buyrug‘i** bilan tasdiqlangan “NKMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizomga belgilangan muddat va tartib bo‘yicha bartaraf etilganligi tugrisida qo‘srimcha axborot kiritilib boriladi.